

O‘ZBEK STEREOTIPLARINING GENDER XUSUSIYATLARI**Shoxistaxon Shamsiyeva**shohistaxon81@mail.ru

Annotatsiya. *Inson o‘z hayotini gender xususiyat bilan boshlaydi. Binobarin, chaqaloq dunyoga kelganda, u qiz bo‘lsa pushti rangli, o‘g‘il bo‘lsa ko‘k rangli kiyimlar va yo‘rgaklar bilan qarshi olinadi. Tug‘ruqxonaga chaqaloqni ko‘rgani kelganlar gender xususiyatni aniqlash uchun uning o‘g‘il yoki qiz ekanligini so‘rashadi. Biroq gender biologik jins yoki jinsiy xususiyat emas. Mazkur farq bizning biologik jins haqidagi qarashlarimizning gender xususiyatga qay darajada ta‘sir ko‘rsatishini tushunishda juda muhim sanaladi.*

Kalit so‘zlar: *gender, gender stereotip, gender leksemalar, gender evfemizmlar, gender iboralar*

Gender – sotsio-madaniy kategoriya bo‘lib, jinslar rolini an‘anaviy o‘rganishni nazarda tutmaydi. Gender – ijtimoiy va psixologik jarayonlarning yirik majmuyi, shuningdek, jamiyatda vujudga keladigan va milliy lisoniy shaxsning axloqiga ta‘sir ko‘rsatadigan madaniy ko‘rsatmalar, qoidalardir.

Gender stereotipi til tizimi darajasida ishlaydi, gender tushunchasi esa, gender stereotipiga qaraganda ancha kengroq ifodalanadi.

Gender stereotiplari – bu ayol yoki erkakka xos barcha xususiyatlar tizimidir.

O‘zbek oilasida “yaxshi xotin” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek ayoli o‘z oilasi oldidagi qator vazifalarini bajargandagina yaxshi xotin hisoblanadi. O‘zbek qizlari turmushga ciqqanlarida, ular aksariyat hollarda qaynona va qaynotasi bilan birga turadilar. Kelin barvaqt, eridan va qaynona-qaynotasidan oldin turib, hovli, yo‘lak va ko‘cha darvozani supurib, suv sepadi. Yilning qaysi fasli bo‘lishidan qat‘i nazar bu vazifani bajarish kerak bo‘ladi. Keyin nonushta tayyorlaydi. Erining kiyimlarini tayyorlab, tuflilarini artib, uni ishga kuzatadi.

Ba‘zan er-xotin kiyinib, birga ishga yoki o‘qishga ketishadi. Kuning oxirida xotin uyga qaytib, uylarni tozalab, eri uchun kechki ovqat tayyorlaydi. Eri ishdan qaytguncha hamma narsalarni taxt qilib qo‘yadi. Ular birgalikda ovqatlanib, keyin dam olishadi.

O‘zbek ayolining kundalik turmushda qator majburiyatlari bor. Yaxshi ayol turmush o‘rtog‘iga nisbatan o‘ziga xos muomala usullarini qo‘llaydi. Xususan, eriga hurmat ma‘nosida “Siz” deb murojaat qiladi. Shuningdek, erining ismini aytib chaqirmaydi, ismini aytib chaqirish hurmatsizlik hisoblanadi. Ko‘pincha “xo‘jayin”, “bolalarning otasi” ma‘nosida “dadasi”, ba‘zan katta farzandining ismini aytib murojaat qiladi.

Kelindan qaynona-qaynotaga nisbatan ham alohida hurmatda bo‘lish talab qilinadi. Yangi kelin qaynona-qaynotasi bilan yashasa, ularga ertalab nonushta, tushda ve kechqurun issiq ovqat tayyorlashi kerak bo‘ladi. Yaxshi xotin sifatida oilaning boshqa a‘zolariga,

xususan, qaynog'asi, qaynisi, qaynagachisi va qaynisinglisining hurmatini ham joyiga qo'yadi.

Yaxshi xotinning yana bir fazilatlaridan biri uning mehmondo'stligidir. Uyga kelgan mehmonlarni ochiq chehra bilan "xush kelibsiz" deb kutib oladi. Keyin ularni mehmonxonaga o'tirishga taklif qiladi. Bu xona toza va saranjom bo'lib, mehmonlar turli quruqva ho'l mevalar, shirinliklar, pishiriqlar, non va choy qo'yilgan xontaxta yoki stol atrofida o'tiradilar.

O'zbek ayoli uchun yaxshi pazanda bo'lish juda muhim. U pishirgan ovqatlar mazali bo'lishi kerak. Umuman, o'zbek ayoli uyiga yaxshi qaraydi. O'zbek ayolining oila a'zolariga, eriga va bolalariga nisbatan bo'lgan cheksiz muhabbati boshqa madaniyatlarda kamdan-kam uchraydigan odatdir. Shuning uchun ham er-xotinning turmushi uzoq davom etadi.

O'zbek tilida gender belgili maqol va iboralarni tarkibidagi komponentlariga qarab ikkiga ajratish mumkin:

1. Tarkibida gender leksemalar mavjud bo'lgan maqol va iboralar
2. Tarkibida gender leksema qatnashmagan maqol va iboralar

Mazkur guruhdagi maqol va iboralar tarkibida ayollar yoki erkaklar ismi, qon-qarindoshlik leksemalari qatnashgan bo'lishi mumkin, lekin ma'nosida ayol yoki erkak tasvirlanmaydi. Bunday ibora va maqollar ham quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- 1) Atoqli otlar qatnashgan gender belgili ibora va maqollar
- 2) Qarindoshlik otlari qatnashgan gender belgili ibora va maqollar
- 3) Tarkibida bevosita gender leksemalar qatnashgan ibora va maqollar

Sulaymon o'ldi, devlar qutuldi. Bu ibora "qattiqqo'l kishi ketib, hamma istaganini qilishiga imkoniyat tug'ildi" degan ma'noda qo'llaniladi. Masalan: Nega hammang ish qilmay, bekor o'tiribsanlar? Sulaymon o'lib, devlar qutulibdi-da! Mazkur ibora o'zining kelib chiqish tarixiga ega: "Sulaymon "Tavrot" va "Qur'on"da tilga olingan payg'ambarlardan biri, hukmdor. Jinlarning Sulaymonga qasrlar bunyod etgani, dengiz tubidan duru javohirlar olib chiqib bergani naql etiladi. Sulaymon tayangan hassani uzoq vaqt yog'och qurti yeb u yerga qulab tushmaguncha, jinlar Sulaymonning vafot etganini bilmaganlar va payg'ambar ularga buyurgan vazifa – baland qasr bino qilish ishini davom ettiraverganlar. Shunday qilib, Sulaymon o'lib, devlar mehnatdan qutulgan ekan".

Xo'ja Ahrorning moli – bu narsalar Xoja Ahrorga tegishli (ya'ni, boshqa bировga tegishli bo'lmagan narsalar).

Ayubning sabridek – "sabrlilik" ma'nosini anglatadi.

Ona(si)ni uchqo'rg'ondan ko'rsatmoq – do'q qilishni, qo'rqitishni ifodalaydi.

Ammamning buzog'i – lapashang, landavur.

Ona suti og'ziga keldi – haddan oshiq qiynalib ketdi.

Erkakni tasvirlovchi turg'un birikmalar: Yigit kishiga qirq hunar oz; Erkakdan ish arimas, tog'dan bulut; Er bermoq-jon bermoq; Arslon izidan qaytmaydi, yigit - so'zidan; Yomon o'g'il molga o'rtoq, Yaxshi o'g'il – jonga.

Ayolni tasvirllovchi turg'un birikmalar: Ayol tilini ayol bilar; Bahorgi jo'jani kuzda sana, kelinni kellar yili sina; Yomg'irda ot tanlama, hayitda – qiz; Qizlar gulni der, boy – pulni; Qizlar qizilga uchar, savdogar – pulga; Kelin – yomon, nevara – shirin; Onali kelin – qarqara, onasiz kelin – tasqara; Qiz meniki – baxti o'zganiki; Qizim-qizim qiz kishi, qizimga kellar yuz kishi; Yaxshi xotin – uy bo'stoni, yomon xotin – zimistoni kabi maqollarda qiz, xotin, ayol, kelin kabi gender leksemalar qo'llangan.

Bu guruhdagi frazeologizmlar tarkibida gender leksemalar qatnashmagan bo'lsa ham ularning qo'llanilishidan gap ayol yoki erkak haqida borayotganligini bilish mumkin.

Og'ir oyoq – “homilador” degan ma'noni anglatadi va bu ibora faqatgina ayolga nisbatan qo'llanadi.

Boshi qorong'i – homilador (homiladorlikning birinchi davrida).

Oq soqol iborasi – “tajribali kishi” degan ma'noni anglatib, uning taribidagi soqol so'zi bu iboraning faqat erkak kishiga nisbatan qo'llanilishidagi motivdir.

Erkak va ayolni tasvirlashda zoonim komponentli maqol va iboralardan ham keng foydalaniladi. O'zbek tilida G'unajin ko'zini suzmasa, buqa ipini uzmaydi maqoli mavjud. Ushbu maqolda ko'chma ma'no ifodalangan bo'lib, uning tarkibida qo'llangan g'unajin zooleksemasi aslida ayolni ko'rsatsa, buqa zooleksemasi erkakni ifodalaydi va ayol noz-ishvasi bilan erkakni o'z tuzog'iga ilintirishini bildiradi.

Shuningdek, ayollarni kamsitish maqsadida “ahmoq” ma'nosida tovuq miya iborasi qo'llaniladi.

Ayolning yoshini uning umrining davriy belgilariga ko'ra uch bosqichga ajratish mumkin: **yoshlik davri:** (qizaloq / qiz); **balog'at davri:** (kelin / rafika/ xotin/ ayol /ona); **keksalik davri:** (buvi / qaynona).

O'zbek lingvomadaniyatida “xotin” bo'la olish yoshiga yetganlikni ifodalash uchun to'lmoq, balog'atga yetmoq, bo'yi(ga) yetmoq, ko'zga ko'rinmoq, ko'zga tashlanib qolmoq, katta qiz bo'lib qolmoq, o'n oltiga kirmoq, o'n sakkizga kirmoq singari so'z va iboralar qo'llanadi:

O'zbek taomillariga ko'ra ham, balog'atga yetgan qizda shunday majburiyat bor, ota-ona uchun qizni erga berish farz sanaladi. Albatta, nutqiy odob yuzasidan erga berish, erga tegish deyish to'g'ri emas. Shuning uchun o'zbek tilida erga bermoq iborasi o'rnida turmushga bermoq, kuyovga bermoq, egasiga topshirmoq, uzatmoq, chiqarmoq kabi, erga tegmoq iborasi o'rnida turmush qurmoq, turmushga chiqmoq, uy qilmoq, tegmoq singari so'z va iboralar keladi va bunda ular evfemik vazifa bajaradi.

Tug'ruqoldi va tug'ruq bilan bog'liq evfemizmlar. Dunyo tillarining qariyb barchasida bo'lganidek, o'zbek tilida ham ayolning tug'ruqoldi holati va tug'ruq jarayonini birmuncha yumshatib, ba'zan yashirib ifodalaydigan alohida til birliklari bor bo'lib, ular nutqqa evfemik maqsad bilan olib kiriladi.

O'zbek lingvomadaniyatida “bo'g'oz//ikkikat” tushunchasini ifodalash uchun homilador, bo'yida bor, og'iroyoq, yukli, qornida bor; “ikkikat bo'lmoq” tushunchasini anglatishda

yuzida dog‘ paydo bo‘lmoq, bo‘yida bo‘lmoq kabi evfemik belgili til birliklaridan foydalaniladi.

O‘zbek tilida homiladorlik davrida ayolning semirishi to‘lin oyga o‘xshatiladi: Yoz o‘tdi. ... Uning oqish-sariqdan kelgan yuzlari qizarib, to‘lishdi. Semirdi. Bilak va ko‘kraklari bo‘liq bo‘ldi. Oyoqlari ham. **Yangam oyday edi. Oydek to‘lin edi** (Sobir O‘nar. Bibisora).

Ayolning axloqi bilan bog‘liq evfemizmlar. Xitoy tilining“现代汉语规范词典”Xiàndài hànyǔ guīfàn cídiǎn lug‘atida 小姐Xiǎojiěso‘zining 1) **qadim** zamonda turmushga chiqayotgan qiz; 2) yosh qiz; 3) xizmat ko‘rsatuvchi qiz (fohisha) ma‘nolari qayd qilingan. 小姐Xiǎojiě so‘zi qadimgi xitoy tilidagi 大户小姐Dàhù xiǎojiě (tannoz ayol)ning qisqarishidan kelib chiqqan bo‘lib, uning ma‘no taraqqiyoti uzoq tarixiy jarayonlarga tutashadi. 小姐xiǎojiěso‘zi Sun, Yuan davrlarida past tabaqadagi qizlarga nisbatan qo‘llanilgan. So‘nggi yillarda mazkur so‘z “yosh qiz, miss” yoki “boy xonadonning qizi” ma‘nolari uchun ishlatila boshladi [7].

Ayollarning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq evfemizmlar. Keyingi yillarda qator mamlakatlarda yashash sharoitlarining yaxshilanib borishi natijasida kishilarning vazni og‘irlashib bormoqda. Ortiqcha vazn, nafaqat xitoylik, balki barcha dunyo ayollarining ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu ma‘noda semiz ayollarga xushomad qilish, semizlikni me‘yoriy holat sifatida qabul qilish maqsadida quyidagi evfemizmlar qo‘llaniladi: do‘mboq, do‘ndiq, do‘ndiqcha, to‘la, to‘ladan kelgan, bo‘liq va h.k.

G‘arb lingvomadaniyatida xol so‘zi teridagi tashqi tug‘ma nuqsonni bildiradi, ammo o‘zbek xalqi yuzdagi xolni tug‘ma go‘zallik timsoli deb qabul qiladi. Ayniqsa, mumtoz adabiyotimizda bu timsol latofat sifatida tarannum etilgan: Agar ko‘nglimni shod etsa o‘shal Sheroz jononi, Qaro **xoliga** baxsh etgum Samarqandu Buxoroni (Hofiz Sheroziy); Latif burni yonidagi qora **xolining** tabiiyligiga ishonmagandek qashib ko‘rdi va ko‘zgu yonidan jo‘nadi (Abdulla Qodiriy. O‘tgan kunlar).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belaya, N. V. (2009). Gender as a factor of social relations in English, American, and Russian linguocultures (Doctoral dissertation). Moscow, Russia.
2. Urazaliyeva, G. (2009). Gender and women's legal culture. Tashkent, Uzbekistan.
3. Fraser, H. (2020, January 8). Uzbekistan takes important steps to ensure gender equality. Retrieved from <https://strategy.uz/index.php?news=745>
4. Kirova, A. G. (2009). Development of gender studies in linguistics. Vestnik TGPU, (8), 86.
5. Potapov, V. V. (2002). The current state of gender studies in English-speaking countries. In Gender as a cognitive intrigue. Pilot issue (pp. 78–89). Moscow, Russia: Rudomino Publishing House.

6. Iskandarova, Sh. M. (1993). Forms of communication in Uzbek speech culture (Doctoral dissertation). Samarkand, Uzbekistan.
7. Doniyorov, Kh. (1979). Lexicon of Kipchak dialects. Tashkent, Uzbekistan: Fan Publishing.
8. Yusupova, G. (2024). Sociolinguistic study of Korean and Uzbek speech etiquette (Doctoral dissertation). Tashkent, Uzbekistan.
9. Shamsieva, Sh. (2020). Linguocultural study of household euphemisms in Chinese and Uzbek languages (Doctoral dissertation). Tashkent, Uzbekistan.